

**KIMYONI 7-SINF O‘QUVCHILARIGA O‘QITISHDA XALQARO
BAHOLASH TIZIMIGA MOSLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH**

Ulug‘bekova Go‘zal Sherikboyevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Omonov Navro‘zbek Shermuhammad o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori

Jo‘rayev Murod Maxmarajab o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Atullayev Zokir Maxsudovich

Urganch Davlat universitet dotsenti

O‘quvchilar bilimni nazorat qilish vaqtida ham o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish funksiyalari bajariladi. O‘qitish ahamiyati shundaki, o‘quvchi o‘z bilimi va ko‘nikmalarini doim to‘g‘rilab turishining imkoni bo‘ladi. O‘quvchilar bilimni nazorat qilishining tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Doimiy tekshirishlar o‘quvchini sistematik ravishda ishlashga o‘rgatadi, olingan bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llay oladi. O‘quvchilarda ma‘suliyatlilik, maqsad sari yo‘nalish, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yengish va boshqa ma‘naviy fazilatlar shakllanadi. O‘quvchilar bilimni nazorat qilishda ularni rivojlantiruvchi ahamiyatiga alohida e‘tibor beriladi. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyati, analiz, sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlik kiritishlar ham alohida nazorat qilinadi.

Yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish masalalarida yangicha yondashish davr talabi bo‘lib kelmoqda. Zero Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ta‘limning yangi shakl va uslublari, o‘quv shu jumladan, tabaqalashgan dasturlar amaliyoti joriy etiladi” [1], deb ta‘kidlanadi.

Respublikamizda uzluksiz ta‘lim tizimini joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – yosh avlodda yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faollik, erkin fikr yuritish kabi qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat [2]. Bunda avvalo, tahsil oluvchilarning faolligini oshirish talab qilinadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlarini o‘stirishda ta‘limning interfaol usullaridan keng hamda o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga o‘quvchilarda mehnat ta‘limiga oid bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishda tizimlilik, aniq maqsadga

yo'naltirilganlik, o'qitish ishlarining natijalarini nazorat qilish hamda baholashga yangicha usularni joriy etish kabilar yetarlicha o'z aksini topmay qolmoqda [3].

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari. Pedagogikada ta'lim oluvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (ob'ektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. *Xolislik (ob'ektivlik)* tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat [4]. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari vositalaridan, tashxis o'tkazgan ta'lim beruvchidan qat'iy nazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez – tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir ta'lim oluvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy harakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi.

Ixtisoslashtirilgan va prizident maktablarida baholash tartibi:

Mezonlarga asoslangan baholash- bu ishlab chiqilgan mezonlar asosida o'quvchilarning kutilayotgan natijalari bilan o'quvchilarning haqiqiy yutuqlarini o'zaro bog'lash jarayoni.

Formativ baholash- o'quvchi dars jarayonida bu o'quv jarayoni davomida olib boriladigan va o'qitishni o'z vaqtida tuzatishga imkon beradigan baholash turi hisoblanadi. Bu yangi baholash tizimiga ko'ra 100 ball o'qituvchi tomonidan

formativ baholash 10 ballik tizimda baholanadi. Bunga ko'ra 10 ballik sistemadagi baholashning 6 balini mavzu yuzasidan o'zlashtirish darajasiga, 4 bali esa uyga vazifa uchun qo'yiladi.

Summativ baholash-ma'lum davrda yoki ma'lum bob yuzasidan berilgan bilimlarning darajasini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Ya'ni bunda o'qituvchi muayyan miqdorda mavzularni qamarab olgan bobni o'quvchiga yetkazib bergach, o'quvchilarning ushbu bob yuzasidan olgan aniq bilimlari aniqlanadi. Eski baholash tizimida nazorat ishi ko'rinishida mavjud bo'lgan. Hozir vaqtda bola o'qishda davom etadi, faqat kundalik baholanmaydi. O'quvchi muayyan bobni yakunlagandan keyin, o'quvchi qanday bilimlarni ega bo'lish kerakligi, bolaga qanday ko'nikma va tajriba shakllanishi lozimligi haqidagi savol o'rta tashlanib, shunga mos tarzda topshiriq ishlab chiqiladi. Aynan shundagina har bir o'quvchiga nisbatan munosabat bir xil bo'ladi. Baholashda obektivlik yuzaga keladi [5].

Tadqiqotni amaliyotda sinovdan o'tkazish va natijalarni tahlil qilish

Birinchi navbatda bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid ma'lumotlar ya'ni adabiyotlar, internetdan ma'lumotlarni qidirib topdim. Topilgan ma'lumotlarni jamlab, ularni o'qib o'rganib chiqildi.

Mavzu: "Suvning kimyoviy xossalari"

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga berilgan mavzu yuzasidan ilmiy asoslangan, Davlat Ta'lim Standarti talablariga javob beradigan bilimlar berib, ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilib, tegishli malakalarini shakllantirish.

2. Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarimizni Ona-Vatanga, tarixiy va madaniy merosimizga, O'zbek xalqining buyuk siymolariga, Ota-onaga muhabbat va milliy iftihar tuyg'usi ruhida tarbiyalash. Ularda ekologik madaniyatni shakllantirish va tarbiyalash.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: Ilmni amaliyotga tatbiq etish. O'quvchilarning bilim va tafakkurini, kitobxonlik malakasini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, kimyo fani va shu sohadagi kasblarga qiziqishlarini shakllantirish.

Darsning jihozlari : Plakatlar, tarqatma materiallar, monitor, kimyoviy elementlar davriy jadvali.

Dars turi:

Yangi bilim beruvchi

1.Darsning tashkiliy qismi:

1. O'quvchilar bilan salomlashish
2. O'quvchilar davomatini aniqlash.

3. Darsga tayyorgarlik ko‘rish.


Yangi mavzuni bayoni:

Suv – Yer sharida eng ko‘p tarqalgan muhim kimyoviy birikmalardan biri; Suv - barcha tirik mavjudotlarining bir qismi bo‘lgan ta‘msiz, hidsiz, rangsiz, suyuqlikdir. U tuproqda ham havoda ham mavjud. Tirik organizmlar faqat suvda erigan ovqat iste‘mol qiladi.

Suv vodorod va kislorod atomlaridan tashkil topgan murakkab modda bo‘lib, tarkibida ikki atom vodorod va bir atom kislorod tutadi. Bu ikki gaz - juda yengil vodorod va og‘irroq, faol kislorodning oddiy birikmasi. Vodorod kislorodda yonish natijasida suv hosil bo‘ladi. Ammo xususiyatlariga ko‘ra suv uni tashkil etuvchi elementlarga o‘xshamaydi. Suv o‘z xususiyatlariga ega.

Suvning molekular formulasi H_2O shaklida ifodalanadi. Suvda vodorod atomlari kislorod atomi bilan $104,3^\circ$ burchak hosil qilib birikkan. Suv molekulari tabiatda assotsiya tsiyalangan holda mavjud bo‘ladi va $(H_2O)_n$ tarzida ifodalanadi Suvning nisbiy molekular massasi uni tashkil qilgan vodorod va kislorod atomlarining nisbiy atom massalari yig‘indisidan iborat:

$M_r(H_2O) = 2 \cdot 1 + 1 \cdot 16 = 18.$, Demak, 1 mol suvning massasi 18 g ga, suvning molar massasi 18 g/mol ga teng (1-rasm).




1-rasm. Suvning grafik tuzilishi (a), hajmiy tuzilishi (b), va assotsiyatsiy holati (d).


Kimyoviy xossalari. Suv molekulari qizdirishga juda chidamli, lekin $1000^\circ C$ dan yuqori haroratda suv bug‘lari vodorod va kislorodga parchalana boshlaydi: $2H_2O = 2H_2 + O_2$.

Faol metallar suv bilan ta‘sirlashib, uning tarkibidagi vodorodni ajratib chiqaradi. Natijada hosil bo‘lgan moddalar asoslar deyiladi.


$NaOH$ – natriy gidroksid, KOH – kaliy gidroksid, $Ca(OH)_2$ – kalsiy gidroksidlar asoslardir.




Suvning reaksiya qobiliyati ancha katta. Ayrim metall va metallmaslarning oksidlari suv bilan ta‘sirlashganda asos va kislotalar hosil bo‘ladi:



Ba'zi tuzlar suv bilan kristallogidratlar deb ataluvchi birikmalar hosil qiladi:




Qizdirilgan temir suv bug'i bilan reaksiyaga kirishadi, natijada temir kuyundisi (Fe_3O_4) ni hosil qiladi:




Suv bir qator kimyoviy jarayonlarni katalizlaydi.

Agar suv bug'i ishtirok etmasa, «qaldiraq gaz» yuqori haroratda ham portlamaydi. Is gazi kislorodda yonmaydi. Xlor metallar bilan ta'sirlashmaydi. Vodorod ftoridoyna bilan ta'sirlashmaydi. Natriy va fosfor havoda oksidlanmaydi hamda xlor bilan ta'sirlashmaydi. Suv boshqa ko'plab moddalar singari uchta asosiy holatga ega: Suyuq (keng tarqalgan), «muz» deb ataladigan qattiq va gazsimon (suv bug'lari). Suv holati uning haroratiga bog'liq.

O'tilgan darslar natijalarini olish maqsadida uchta guruhdan ham sinov uchun kimyoga oid chiqish testi olindi. Kirish va chiqish test sinovi natijalari quyidagi rasmda keltirilgan:



An'anaviy dars ishlanma asosida dars o'tilgan guruhning chiqish testi natijalari



Cambridje xalqaro dars ishlanmasi asosida dars o'tilgan guruhning chiqish testi natijalari

Xulosa: yoshlarga talim-tarbiya berish masalalarida yangicha yondashish davr talabi bo'lib kelmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta'limini joriy etishdan asosiy ko'zlangan maqsad – yosh avlodda yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faollik, erkin fikr yuritish kabi qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat. Bunda avvalo tahsil oluvchilarning faolligini oshirish talab qilinadi O'qituvchi o'z faoliyati davomida, yani ayrim hollarda baho ballari ularning so'z shakli bilan “a'lo”, “yaxshi” deb almashtiradi. Pedagogik baholash umuman bolalarning shaxsini emas, balki ko'rsatgan sifatlarini baholashni nazarda tutadi. Pedagogik baholashga bunday yondoshishga asoslangan va undan o'z ishida oqilono foydalangan holda pedagog o'z o'quvchilarining qiymatliy munosabatlarini shakllantiradi va to'g'rilaydi. Pedagogik baholash vositasida o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilarida axloqiy va ma'naviy-etik qarashlarni tarkib toptiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020 yil.
4. Rahimjonova S.T. Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o‘rni. Science and innovation. № 3. 2022. 327-329 betlar.
5. Ataulloyev Z.M., Formation of Independent Work Skills for the Purpose of Preparing School Students for CreditModule., Education Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 17-08-2022. In Volume 1 1 of Journal of Pedagogical Inventions and Practices. [40-45].